



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**  
**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**“G‘AFUR G‘ULOM IJODIY  
MEROSINING O‘ZBEK VA JAHON  
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI  
TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI”**

*mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjuman*

**TO‘PLAMI**

**Toshkent 20-sentabr, 2023-yil**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**  
**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**“G‘AFUR G‘ULOM IJODIY MEROSINING O‘ZBEK VA JAHON  
ADABIY-ESTETIK TAFAKKURI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI”**

**mavzusida xalqaro ilmiy anjumani  
to‘plami**

**Toshkent – 2023**

**Tahrir hay'ati:**           **A.Ulug'ov**  
                                  **D.Xoldorov**  
                                  **O.To'laboyev**  
                                  **O.Usmonov**  
                                  **U.Rasulova**  
                                  **R.To'laboyeva**

**Mas'ul muharrir:**       **prof. Bahodir Karimov**

**To'plamdan xalqaro konferensiya materiallari o'rin olgan. Maqolalarda filologiya ilmining turli sohalariga oid ilmiy kuzatishlar jamlangan bo'lib, mazkur sohaga oid barcha mutaxassislarga mo'ljallangan.**

## G‘AFUR G‘ULOM IJODIDA FOLKLOR UNSURLARI

Nodira SOATOVA

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori v.b.,  
filologiya fanlari doktori doktori

*G‘afur G‘ulom badiiy ijod bilan ilmiy ijodni birgalikda amalga oshiradigan nodir zotlardan biri edi. Uning o‘zbek adabiyotshunosligi rivojiga qo‘shgan ulushi ulkandir.*

*A. Qayumov.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O‘zbekiston xalq shoiri, akademik, hikoyanavis, feletonchi, ocherknavis, publitsist va tarjimon G‘afur G‘ulomning folklordan foydalanish mahoratini ochib berishga bag‘ishlangan. Maqolada G‘afur G‘ulomning folklorga bo‘lgan chuqur samimiyati va hurmati ijodkorning “Folklordan o‘rganaylik” maqolasi orqali ilmiy asoslab berilgan. Shunigdek, G‘afur G‘ulomning she‘riyatida, doston va hikoyalarida ibora va maqollardan unumli foydalanishi, uning yaratilishining badiiy estetik ta‘sirchanligini yuksak darajaga ko‘targanligi aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** Folklor, qadriyat, pafos, lirizm, lirik qahramon, g‘oyaviy qarash, lirik ifoda.

**Annotation:** This article is dedicated to revealing the skill of using folklore of Gafur Ghulam, a major representative of Uzbek literature of the 20th century, national poet of Uzbekistan, academician, storyteller, essayist, essay writer, publicist and translator. In the article, Ghafur Ghulam's deep sincerity and respect for folklore is scientifically substantiated through the author's article "Let's learn from folklore". In addition, it was found that Ghafur Ghulam's effective use of phrases and proverbs in his poetry, epics and stories raised the artistic aesthetic effectiveness of his creations to a high level.

**Key words:** Folklore, value, pathos, lyricism, lyrical hero, ideological vision, lyrical expression.

XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O‘zbekiston xalq shoiri, akademik, hikoyanavis, feletonchi, ocherknavis, publitsist va tarjimon G‘afur G‘ulom ijodiga O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning o‘z vaqtida “bugungi hayotimizda va kelajak avlodni o‘stirishda G‘afur G‘ulomning ijodi, albatta, beqiyos ahamiyatga ega. Shuning uchun mening tilagim shundayki, G‘afur G‘ulomning ijodini faqat O‘zbekistondagina emas, avvalom bor, har tomonlama butun dunyoga mashhur qilishimiz kerak” degan so‘zlari bugunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay ijodkor adabiy merosini chuqur o‘rganish kerakligini naqadar muhimligini ko‘rsatib turibdi. To‘g‘ri, XX asr adabiyotshunosligida G‘afur G‘ulomning ijodining turli qirralari, xususan uning she‘riy va nasriy asarlarining poetik tuzilishi, obrazlari xususida H.Yoqubov, S.Mamajonov, N.Shukurov, A.Akabarov, J.Tursunovlar [1;2;3;4;5;6;7] tomonidan chuqur o‘rganilib, ko‘plab

asosli ilmiy fikrlar bildirilgan. Biz esa quyida Gʻafur Gʻulomning ijodida folklorni tutgan oʻrni haqidagi ayrim mulohazalarimizni bildiramiz.

Avvalo, shu oʻrinda aytish joizki, ijodkorning oʻz vaqtida xalq ijodiyoti sohasida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. Xususan, uning “Folklordan oʻrganaylik” maqolasida qadim zamonlardan xalq ijodiyoti omma orasida keng yoyilgani, oddiy kishilarning undan maʼnaviy oziq olgani, folklor ijodkorlari va ijrochilari haqida soʻz borgan. Shuningdek, maqolada Gʻafur Gʻulom xonlar, amirlarning saroyida saqlangan maxsus baxshilar hamda ularning taqdiri haqida toʻxtalar ekan, ijodkor aslida folklorning yaratuvchisi oddiy xalq ekanligini taʼkidlaydi va uni xalq hayotidan ajratib oʻrganish aslo mumkin emasligini eʼtirof etadi.

Bu ilmiy maqola haqida yana shuni aytmoq kerakki, maqola aslida 1939 yilda Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining II qurultoyida oʻqish uchun yozilgan maʼruza boʻlib, oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra juda koʻp masalalarni qamrab olgan. Xususan, maqolada Gʻafur Gʻulom koʻplab oʻzbek baxshilari, jumladan oʻzbek baxshilaridan Ergash Jumanbulbul, Fozil shoir, Bola baxshi-Qurbonnazar Abdullayev kabi ijodkorlarning repertuari haqida toʻxtaldi va folklor janrlarining deyarlik barchasiga tavsif beradi va maqolasining nihoyasida folklor va yozma adabiyot masalasiga toʻxtalar ekan, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Hamza ijodining xalqchilik negizi haqidagi har bir qarashlarini ilmiy dalillar bilan asoslab beradi. Jumladan, Alisher Navoiy ijodida folklorni tutgan oʻrni haqida gapirar ekan: “Ulugʻ adib shoir va olim Alisher Navoiyning shoh asarlari boʻlgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabʼai sayyora”dagi etti musofir hikoyalari xalq ijodidagi kuchli fantaziyaning aqllarni shoshirar darajadagi uydirmachilik sanʼatining, kam-koʻstisiz soʻz boyligining jamuljamida adabiyot sanʼatining tojidagi gavhari serobiday porloq namunasi dirki, Navoiy bu asarlari bilan xalqning ulugʻ ijodkori boʻlib qoladi. U oʻz syujetlarini xalqdan olgani kabi, ikkinchi navbatda xalq uchun syujet beradi” kabi.

Koʻrinib turibdiki, Gʻafur Gʻulom ijodkorlarni folklordan unumli foydalanishini maqsadga muvofiq deb oʻylagan va ular oldiga shunday ulugʻ bir vazifani qoʻyadi va natijada oʻzi ham: “..xalq tilining barcha qirralariga murojaat qildi, jonli gaplashuv tili elementlari, xalq nutqi, soʻz boyligi, iborasi, obrazlari, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy va oddiy turmushga oid soʻzlarni poeziyaga olib kirdi” [5;267].

Gʻafur Gʻulom ijodini kuzatganimizda, olimning yuqoridagi eʼtirofini ayni haqiqat ekanligini, shoir tilining ichki tabiatida, nutq manerasida, intonatsiyasida, uslubida, badiiy-tasviriy vositalarida, umuman poetikasida va leksikasida milliylik namoyon boʻlganligini ijodkorni xalq ijodi anʼanalaridan, xususan xalq maqollaridan foydalanish bilan birga oʻzbek sheʼriyatida original tasviriy usullarni kashf qilganligini shohidi boʻlamiz:

*Ertasini oʻylagan-indin boʻlmas pushaymon,  
Fursat kasal emaski oʻtganiga suyunsang.*

*Yer qattiq, osmon yiroq, toʻzgʻib ketgan oshiyon.*

*Dardi yo 'q kesakdir, ishqiy yo 'q eshak...*

*Qo 'chqor bo 'laturgan qo 'zichoqlarning  
Manglayi tug 'ilgan choqda do 'ng bo 'lur.*

*G'alaba asrimizning o 'smirlarisiz-  
Sherbachcha qilig 'i sherday cho 'ng bo 'lur.*

*Shoshgan qiz yolchimas erga-deganlar...  
Humoyun ovlaydi shoshmas merganlar.*

Mazkur keltirilgan parchalarda ibora va maqollardan foydalanish she'ring badiiy estetik ta'sirchanligini yuksak darajaga ko'taradi. Xuddi shunday holatni "Ko'kan" poemasida ham kuzatish mumkin:

*"Yakka otning yo 'rg 'asidan chiqarmi chang...  
Oziqlik ot horimaydi...  
Sayil ham sayil, sargardon ham...  
Katta xirmon qizillansa, chiqmas chori..."*

Shoir she'riyatida folklorga xos iboralar, metafora va istioralar ko'plab uchraydi. Ayniqsa, uning bolalar uchun ijod qilgan she'rlarida bu xususiyat juda ustun. U "Turg'un va o'rdak" she'rida yalqovlik va erinchoqlikning zararini xalqona tafakkur yordamida ochib beradi. Hatto she'rni ertak kabi boshlaydi:

*Bir bor ekan, bir yovvoyi o 'rdak bor ekan,  
Ko 'm-ko 'k quyuyq o 'rmonchada yakkayu yolg 'iz.  
Shu yaqinda bir anhorcha, qirg 'og 'i ko 'rkam,  
O 'rdak shunda cho 'milarkan, kechayu kunduz.*

Adib she'rlariga nazar tashlansa, ularda xalq ijodiga xos bo'lgan turli maqol va iboralar ko'plab uchraydi, bu albatta G'afur G'ulomning folklor va mumtoz adabiyotiga bo'lgan muhabbati bo'lib, uning quyidagi to'rtligidan ham buni isbotini ko'rish mumkin:

*Yigitlik so 'nggida Majnun bo 'lsam,  
Ulug ' doston aro mazmun bo 'lsam,  
Chunonchi Vomiqu Uzro bo 'lolmas,  
Chunonchi Tohiru Zuhro bo 'lolsam.*

Binobarin, ijodkor o'z she'riyatida xalq so'zlashuv tiliga xos bo'lgan ixcham iboralar, maqol va matallarni ishlatar ekan, ularning ta'sirchanlik darajasini yuksaltirishga asosiy e'tiborini qaratadi.

G'afur G'ulom ijodi haqida yana shuni aytish mumkinki, "G'afur G'ulom xalq tilidan foydalanish bilan birga uni ishlashda, o'zbek adabiy tilini boyitishda ham katta hissa qo'shdi. Buning uchun u adabiy faoliyatining ilk yillaridayoq xalq tilining turli doiralariга murojaat qildi, ulardan foydalanib, jilolab adabiy tilga kiritishga intildi. Bu vazifani bajarish maqsadida u o'ttizinchi yillar boshida yaratgan hikoya, ocherk, she'r va poemalarida maishiy-etnografik so'zlardan tortib xalq maqollari va ifodalarigacha turli tabaqalarning uchuruq va qochiriqlaridan tortib g'ayri ahloqiy so'zlar, qarg'ish va so'kishlarigacha, iste'moldan chiqqan so'zlar (arxaizm)dan tortib

yangi soʻz yaratish (neologizm)gacha, shevachilik (dialektlar)dan tortib, chet til elementlari (varvarizm)gacha internatsional soʻzlardan tortib texnologik va ilmiy terminlargacha-hammasini ishlatadi. U xalq tili boyliklari-soʻz fondi, leksik va grammatik boyliklarni adabiy tilga keng ravishda tortish niyatida dastlabki hikoyalarni asar qahramoni (koʻpincha salbiy obraz) tilidan gapirtirdi”[2;106].

Darhaqiqat, Gʻafur Gʻulom oʻzining hikoyalarda xalq ijodiyotiga xos tasvir usullari, obraz yaratish xususiyatlari, folklorga xos motivlardan foydalanish masalalariga jiddiy eʼtibor qaratadi. Hikoyalarda koʻproq xalq ijodiga xos obrazlarni tanlab oladi. Ana shunday hikoyalardan bittasi “Mulla Nasriddin Afandi va shayton Alayxullaqna”dir.

Ushbu hikoyada adib voqeani ham afsonalar asosida tanlaydi. Ushbu afsonani real hayotga yaqinlashtirib tasvirlaydi. Shu bois hikoya shakl va mazmun jihatidan afsona va latifalarga juda yaqin keladi. Ayniqsa unda qoʻllanilgan badiiy tasvir vositalari oʻzining originalligi bilan oʻquvchi eʼtiborini tezda oʻziga jalb etadi. Xuddi shuningdek, adibning “Hasan Kayfiy” hikoyasi ertak usulida yozilgan boʻlib, muqaddimasi ertaklardagi anʼanaviy boshlanmalar bilan toʻla mos keladi. Uning qahramonlari ham ertaklardagi singari oʻziga xos obrazlardir.

Gʻafur Gʻulom nasri xalq ijodiyoti anʼanalarining realistik tasvir bilan omuxtalashtirilgan oʻziga xos bir koʻrinishidir. Adib nasri bayon qilish uslubi, obrazlari, voqealar tizimi jihatidan ertak, afsona va rivoyatlarga xos tasvirni esga soladi. Yozuvchining “Shum bola”, “Tirilgan murda” kabi asarlari voqealarning tanlanishi, bayon qilinishi, obrazlarning faoliyati jihatidan ertaklarga juda yaqin turishi bilan ularda adib xalq maqollaridan unumli foydalangan: “Nima qilaman, osmon uzoq, er qatiq. Qilichini koʻtarib, qish kelayotir. Men axir koʻchib ketgan qishloqning tandiri emasman-ku, qishin-yozin ogʻzimni ochib, esnab oʻtirsam. *Bup tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak*” kabi.

Asar mutolaasidan koʻrish mumkinki, Gʻafur Gʻulom maqollarni asar qahramonlari tilidan har bir vaziyatga qarab, oʻrni bilan qoʻllay olgan. Jumladan, “*Semizlikni qoʻy koʻtarar*”, “*Yopiqlik qozon yopiqlik*”, “*Tuya koʻrdingmi, yoʻq*”, “*Osmon uzoq-yer qattiq*”, “*Boʻsh qop tik turmas*”, “*Yaxshi buzoq ikki enani emibdi*”, “*Tuya bittanga-qani bittanga, tuya ming tangga-mana, ming tanga*”, “*Otangni oʻldirganga onagni ber*”, “*Maslahatli toʻn tor kelmas*”, “*Oʻgʻri qarisa soʻfi, gʻar qarisa parixon boʻladi*” kabi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Gʻafur Gʻulom xalq ogʻzaki ijodi va mumtoz adabiyotni mukammal bilgan. Natijada, u har bir yaratigʻida xalqqa xos boʻlgan iboralar va oʻz navbatida turli motivlardan mohirlik bilan foydalangan, ularga ijodiy ishlov bera olgan. Gʻafur Gʻulomning oʻziga xos boʻlgan bu jihati uning asarlarining badiiy-estetik saviyasi yuksak darajaga koʻtarib, oʻqimishlilikini taʼminlagan va Gʻafur Gʻulom ijodiyotining umrboqiyiligi uchun asos boʻlgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akbarov A. Shoirning hayoti. –T.: Adabiyot va sanʼat. 1978.
2. Yoqubov H. Gʻafur Gʻulom (hayoti va ijodi). –T.: Adabiyot va sanʼat 1959.
3. Mamajonov S. Shoir va zamonaviylik. –T.: 1963.
4. Mamajonov S. Gʻafur Gʻulom prozasi. –T.:1966.

5. Mamajonov S. Uslub jilolari. –T.: 1972.
6. Shukurov N. G‘afur G‘ulomning lirik poeziyasidagi mahorati. –T.: 1966.
7. Tursunov J. Shum bola bilan yangi uchrashuv // “Sharq yulduzi” jurnali, 1963.
8. G‘afur G‘ulom. Asarlar. –T.: Adabiyot va san‘at”, 1972.

## ҒАФУР ҒУЛОМ ИЖОДИДА БОЛА ОБРАЗИ

**Рухсора ТҶЛАБОЕВА**

**Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат  
ўзбек тили ва адабиёти университети доценти,  
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

**Аннотация:** Мақолада Ғафур Ғулом болалар шоири сифатида эътироф этилиб, унинг болаларга оид шеърлари таҳлилга тортилган. Шоирнинг болаларга бағишланган шеърларидаги образли ифодалар, мавзу ва ғоявий жиҳатдан тадқиқ қилинган. Шоирнинг болалар учун шеърлар тўпламлари ўрганиб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Ғафур Ғулом, шоир, болалар шеърлари, адабий таҳлил, мавзу, ғоя, болалар адабиёти

Ғафур Ғуломнинг болалар адабиётига алоқаси хақида сўз юритилар экан, даставвал, унинг болалар учун махсус яратган асарларини тилга олиш жоиз. Зеро, “Мукофот” (1940), “Шеърлар” (1946), “Тонготар қо‘шиғи” (1949), “Бари сеники” (1953), “Бир ғунча очилгунча” (1955), “Сиз менинг ёшлигимсиз” (1958) сингари шеърӣ тўпламларда шоир ёш авлодни, жумладан, ўз фарзандларини ҳам энг яхши умуминсонӣ кадрӣятлар руҳида тарбиялашга аҳд қилган талабчан ва меҳрибон мураббий, фарзандлари камолидан фахрланаётган ва Ватан келажакини ишончли қўлларга топшираётганидан қалби қувончларга тўлиқ меҳрибон ота сифатида намоён бўлади.

У ХХ асрнинг 20-йилларидан 60-йилларигача болалар учун шеърлар, ҳикоя ва ўкинчлари, қувончлари ифода этилган эди. Айни дамда насрий асарларидан “Нетай” 1930-йилда, “Тирилган мурда” 1934-йилда, “Ёдгор” 1936-йилда, “Шум бола” 1963-йилда чоп қилинди. Ғафур Ғуломнинг шеърӣ тўпламларини нашр эттириш шоир вафотидан сўнг тўхтаб қолмади. 1969-йилда “Байрам мактуби”, 1970-йилда “Ўйлашни ўрганамиз”, 1983-йилда “Фарзандларимга” шеърӣ тўпламлари босилди. Зеро, Ғафур Ғуломнинг болаларга аталган асарларисиз ўзбек болалар адабиётини тасаввур қилиб бўлмайди. Ғафур Ғулом мутафаккир ва файласуф шоир сифатида болалар юрт келажакни эканини, уларнинг камоли халқ камоли эканини ҳис қилади, шу туйғуларни шеърларида гоҳ бола бўлиб, уларнинг дунёсини ёритса, гоҳ катталарнинг болаларга муносабатларини акс эттирди.



<b>Дилмурод ХОЛДОРОВ.</b> ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ УСЛУБИЙ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	76
<b>Баҳодир РАҲМОНОВ.</b> ҲАМИД ОЛИМЖОННИНГ БАХТ ФАЛСАФАСИ.....	80
<b>Санобар ТЎЛАГАНОВА.</b> “ШУМ БОЛА” ҚИССАСИ ЁЗИЛИШИДАГИ ИЖТИМОЙ ОМИЛЛАР.....	85
<b>Fizuli Nəcməddin oğlu MUSTAFAYEV.</b> KİNO DİLİNDƏ SAMİTLƏRİN YERİ VƏ İŞLƏNMƏ MƏQAMLARI HAQQINDA.....	92
<b>Олим ОЛТИНБЕК.</b> РАУФ ПАРФИ ИЖОДИДА ҚАТАҒОН ҚУРБОНЛАРИ СИЙМОСИ.....	101
<b>Qo‘ldosh PARDAYEV.</b> G‘AFUR G‘ULOM VA MUQIMIY SHE‘RIYATI MATNI.....	106
<b>Мархабо ҚЎЧҚОРОВА.</b> “ШУМ БОЛА” ҚИССАСИДА “МИНГ БИР КЕЧА” АНЪАНАСИ: ФОЛЬКЛОР СТИЛИЗАЦИЯСИ.....	110
<b>Исмоил САИФНАЗАРОВ, Лутфулла ИЛҲОМЖОНОВ.</b> МАЪРИФАТГА ТАШНА СУЛОЛА.....	114
<b>Nasiba ABDULLAYEVA.</b> G‘AFUR G‘ULOMNING ESTETIK QARASHLARI.....	120
<b>Bashorat JAMILOVA, Mohigul QAHHOROVA.</b> JAHON VA O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA SAYOHAT,SARGUZASHT MOTIVINING UYG‘UN TAMOYILLARI.....	123
<b>Nodira SOATOVA.</b> G‘AFUR G‘ULOM IJODIDA FOLKLOR UNSURLARI.....	129
<b>Рухсора ТЎЛАБОЕВА.</b> ҒАФУР ҒУЛОМ ИЖОДИДА БОЛА ОБРАЗИ.....	133
<b>Obidaxon FAYZULLAYEVA.</b> HAYOT VASFI VA POETIK MUSHOHADAKORLIK.....	136